

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARNING O‘QUV-METODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Ibragimov N.T.

o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annototsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning o‘quv-metodik kompetensiyalarini rivojlantirishi yoritilgan. Shuningdek, o‘quv-metodik kompetensiyaning tarkibiy qismlari, o‘quv-metodik kompetensiyani rivojlantirishdagi faoliyat shakllari, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining o‘quv-metodik kompetensiyasini rivojlantirish mezonlari bayon qilingan.

Kalit soz va tushunchalar: til o‘qitish nazariyasi, metodika, didaktika, psixologiya fanlarini chuqur o‘zlashtirish, seminar, amaliy darslar, pedagogik amaliyot, mikro o‘qitish, CLIL, Task-based Learning, Blended Learning, Flipped Classroom.

Globalizatsiya, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va xalqaro integratsiya sharoitida xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o‘qitish tizimi oldiga yangi talablar qo‘yilmoqda. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari nafaqat til bilimiga ega bo‘lishlari, balki metodik, pedagogik va kommunikativ kompetensiyalarga ega bo‘lishlari zarur. Shu bois ularning o‘quv-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunda pedagogik ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘quv-metodik kompetensiya – bu bo‘lajak o‘qituvchining o‘quv jarayonini samarali rejalashtirish, tashkil etish, tahlil qilish, baholash hamda zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalangan holda o‘qitish mahoratini ifodalovchi integral sifatidir. Bu kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

O‘quv-metodik kompetensiyaning tarkibiy qismlari

№	Tarkibiy qismlari	Tarkibiy qismlarining mazmuni
1.	Nazariy-metodik bilimlar	til o‘qitish nazariyasi, metodika, psixolingvistika, didaktika asoslarini bilish
2.	Amaliy ko‘nikmalar	dars rejalashtirish, o‘quv materialini tanlash, topshiriqlarni yaratish, o‘qitish usullarini moslashtirish
3.	Tahliliy va refleksiv ko‘nikmalar	o‘z faoliyatini baholash, natijalarni tahlil qilish, yangiliklarni joriy etish
4.	Raqamli va innovatsion savodxonlik	onlayn resurslar, platformalar, ta’lim texnologiyalaridan foydalanish

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining o'quv-metodik tayyorgarligiga bir qator omillar ta'sirida shakllanadi. Til o'qitish nazariyasi, metodika, didaktika, psixologiya fanlarini chuqur o'zlashtirish, seminar, amaliy darslar, pedagogik amaliyot, mikro o'qitish, CLIL, Task-based Learning, Blended Learning, Flipped Classroom kabi zamonaviy metodlardan foydalanish, dars tahlili, o'z faoliyatini baholash, kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish, Quizlet, Kahoot, Google Classroom, Padlet, Duolingo kabi vositalardan foydalanish kabi omillar. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi uchun til kompetensiyasi, metodik kompetensiya, axborot-kommunikatsion kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, refleksiv kompetensiya zarurligi bilan birga o'quv-metodik kompetensiyani rivojlantirish talab etiladi. O'quv-metodik kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi faoliyat shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

O'quv-metodik kompetensiyani rivojlantirishdagi faoliyat shakllari

Faoliyat shakli	Mazmuni	Amalga oshirish yo'li
Teskari sinf (Flipped Classroom)	Talabalar nazariy materialni oldindan o'rganadi, darsda amaliyot o'tkaziladi	Videodarslar, onlayn testlar, guruhli muhokamalar
Mikroo'qitish (Microteaching)	Talabalar qisqa dars bo'lagini o'tishadi va tahlil qilishadi	Dars videosini yozib tahlil qilish
Keys-stadi (Case Study)	Real vaziyat asosida metodik qaror qabul qilish	Darsdagi muammoli holatni tahlil qilish
Portfolioga asoslangan ta'lim	O'quvchi yoki talaba o'z yutuqlarini to'playdi	Portfolio, blog, e-portfolio

Pedagogik amaliyot bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun o'quv-metodik kompetensiyani shakllantirishda markaziy o'rin tutadi. Amaliyot davomida dars ishlanmasini tayyorlash, o'qitish materiallarini tanlash, til o'qitish metodlarini sinovdan o'tkazish, o'quvchilarning til kompetensiyasini baholash, darsdan so'ng refleksiya yozish va o'z faoliyatini tahlil qilish amalga oshiriladi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining o'quv-metodik kompetensiyasi quyidagi mezonlar orqali rivojlantiriladi (3-jadvalga qarang):

**Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining o'quv-metodik kompetensiyasini
rivojlantirish mezonlari**

Mezoni	Ko'rsatkichlari
Bilim darajasini aniqlash	Til o'qitish nazariyasi, metodika asoslarini bilish
Ko'nikma va malakalarni egallash	Dars loyihasi tuzish, interfaol metodlardan foydalanish
Ijodkorlik	O'quv topshiriqlarini yaratish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash
Refleksiya	Dars tahlili, mustaqil xulosalar chiqarish, takomillashtirish

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining o'quv-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish – bu faqat metodik bilimlarni berish emas, balki ularni ijodiy fikrlash, refleksiya, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lgan mutaxassis sifatida shakllantirish demakdir. Bu jarayonda o'qituvchi tayyorlov dasturlarida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish, amaliy mashg'ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil etish, shuningdek, raqamli pedagogika elementlarini keng qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Исакулова, Н. (2024). Историческое происхождение педагогических концепций. in *Library*, 1(1), 100–105. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/34867>
2. N.J. Isakulova DARSLAR TIPOLOGIYASI VA O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI // Inter education & global study. 2024. №4 (1). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/darslar-tipologiyasi-va-o-ziga-xos-xususiyatlari> (дата обращения: 30.10.2025).
3. JANIKULOVNA I. N. Methodology of teaching customs terms in english using study projects. – 2024.
4. Subermaniam L. et al. A Systematic Review of Sustainability Management in Small and Medium Enterprises to Improve Sustainable Development Goals //Acta Innovations. – 2025. – С. 38-48.
5. Исакулова Н. Божхона соҳасига оид терминларни ўқитишда тадқиқот лойиҳалардан фойдаланиш //in Library. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 11-19.